



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA .....	34
<b>Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUHLARI .....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	61
<b>Абдуллаева Зайнаб Руслановна</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI .....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI .....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI .....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY .....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT .....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	
AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....	118
<b>Rustamov Sheroz Oblokulovich</b>	



ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBÐ-DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL .....	123
<a href="#">Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</a>	



# ISHLAB CHIQRARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOB-DOUGLAS MODELIDA ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL

**Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali  
 “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasida dotsent v.b., PhD  
 E-mail: [maxmudovsobir49@mail.com](mailto:maxmudovsobir49@mail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ish kuchi va kapital o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy iqtisodiy nazariyalar nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mehnat va kapital resurslarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy va sifat jihatdan baholashdan iborat. Klassik, neoklassik hamda institutsional nazariyalar asosida ishlab chiqarish omillarining samaradorlik darajasi o'rganiladi. Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi yordamida ish kuchi va kapitalning YalMga qo'shadigan hissasi ekonometrik usullar bilan tekshiriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, inson kapitali va jismoniy kapitalning muvozanatli rivojlanishi barqaror iqtisodiy taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ish kuchi, kapital, iqtisodiy o'sish, Cobb–Douglas funksiyasi, ishlab chiqarish omillari, mehnat samaradorligi, inson kapitali, investitsiya, neoklassik nazariya.

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the interrelationship between labor and capital from the perspective of contemporary economic theories. The primary objective of the research is to assess the quantitative and qualitative impact of labor and capital resources on economic growth. The efficiency levels of production factors are examined through classical, neoclassical, and institutional theoretical frameworks. Using the Cobb–Douglas production function, the contribution of labor and capital to gross domestic product is investigated through econometric methods. The findings demonstrate that the balanced development of human and physical capital constitutes an essential prerequisite for sustainable economic progress.

**Key words:** labor force, capital, economic growth, Cobb–Douglas function, production factors, labor productivity, human capital, investment, neoclassical theory.

**Аннотация.** В данной статье проводится глубокий анализ взаимосвязи между трудом и капиталом с позиции современных экономических теорий. Основная цель исследования — количественная и качественная оценка влияния трудовых и капитальных ресурсов на экономический рост. На основе классических, неоклассических и институциональных теорий изучается уровень эффективности факторов производства. С помощью производственной функции Кобба–Дугласа эконометрическими методами исследуется вклад труда и капитала в валовой внутренний продукт.

**Ключевые слова:** рабочая сила, капитал, экономический рост, функция Кобба–Дугласа, факторы производства, производительность труда, человеческий капитал, инвестиции, неоклассическая теория.

## KIRISH

Iqtisodiy nazariyaning eng fundamental masalalaridan biri ishlab chiqarish jarayonida mehnat va kapitalning tutgan o'rni hamda ularning o'zaro ta'sirini o'rganishdan iborat. Ish kuchi va kapital ishlab chiqarishning ikki asosiy omili sifatida har qanday iqtisodiy tizimning rivojlanish sur'atlarini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi [1].

$$Y = AK^\alpha L^\beta \quad Y = f(K, L) \quad \alpha + \beta = 1 \quad MPL = \frac{\partial Y}{\partial L} \quad MPK = \frac{\partial Y}{\partial K}$$

Adam Smit o'zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot” asarida mehnat taqsimotining iqtisodiy o'sishga ta'sirini birinchilardan bo'lib ilmiy jihatdan asoslab bergan [2].

Kapital tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Karl Marks kapitalning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini alohida ta'kidlagan bo'lsa [3], Alfred Marshall kapitalning ishlab chiqarish



samaradorligiga ta'sirini tahlil qilgan [4]. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada esa inson kapitali konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Gari Bekker va Teodor Shultsning ilmiy ishlari inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omillardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5].

Markaziy Osiyoning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarida, jumladan O'zbekistonda, mehnat resurslari va kapital zaxiralaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi [6]. Mamlakatimizda keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda ishlab chiqarish omillarining optimal nisbatini aniqlash hamda ularning yalpi ichki mahsulotga qo'shayotgan hissasini ilmiy asosda baholash muhim amaliy ahamiyatga ega [7].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ish kuchi va kapital o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni zamonaviy iqtisodiy nazariyalar doirasida tahlil qilish hamda Kobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ish kuchi va kapitalning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi iqtisodiy fanlar tarixida uzoq davrdan buyon muhokama qilinib kelinmoqda. Mazkur bo'limda mavzuga oid asosiy nazariy yondashuvlar hamda zamonaviy tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi.

### Klassik nazariy yondashuvlar

Adam Smit (1776) mehnat taqsimotini boylikning asosiy manbai sifatida ta'riflagan hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mehnat ixtisoslashuvining muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [2]. Devid Rikardo (1817) qiyosiy ustunlik nazariyasida mehnat qiymatining tashqi savdodagi rolini nazariy jihatdan izohlab, kapital va mehnat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor qaratgan [8]. Karl Marks esa kapitalning iqtisodiy tizimdagi o'rnini tahlil qilib, qo'shimcha qiymat nazariyasini ishlab chiqqan [3].

### Neoklassik nazariy yondashuvlar

Robert Solouning (1956) iqtisodiy o'sish modeli zamonaviy makroiqtisodiyotning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi [9]. Ushbu modelda texnologik taraqqiyot, mehnat va kapitalning o'sish sur'atlari uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqilgan. Kobb va Duglas (1928) tomonidan taklif etilgan ishlab chiqarish funksiyasi iqtisodiy tahlilda eng ko'p qo'llaniladigan analitik vositalardan biriga aylangan [10].

$$Y = A \cdot K^{\alpha} \cdot L^{\beta}$$

Mankiw, Romer va Veyl (1992) Solou modelini yanada rivojlantirib, inson kapitalini alohida omil sifatida model tarkibiga kiritganlar [11]. Ularning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish darajasidagi tafovutlarning muhim qismi inson kapitalidagi farqlar bilan izohlanadi.

### Institutsional va zamonaviy yondashuvlar

Daron Asemoglu va Jeyms Robinson (2012) institutsional omillarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar [12]. Ularning fikriga ko'ra, mehnat va kapital resurslarining samarali taqsimlanishi mustahkam iqtisodiy institutlar mavjudligi bilan chambarchas bog'liq.

Tomas Pikketti (2014) kapital daromadlarining mehnat daromadlariga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi masalasini tadqiq qilib, iqtisodiy tengsizlik muammosiga zamonaviy yondashuvni taklif etgan [13].

Akhtar va hammualliflar (2021) resurslar degradatsiyasi hamda inson kapitali sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, barqaror rivojlanish sharoitida ishlab chiqarish omillarining ekologik ta'sirini ham hisobga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [14] (1-jadval).

1–jadval. Ish kuchi va kapitalga oid asosiy nazariy yondashuvlarning taqqoslanishi<sup>1</sup>

Nazariya	Asoschi(lar)	Asosiy g'oya	Kapital va mehnatga yondashuv
Klassik	A. Smit, D. Rikardo	Mehnat taqsimoti va qiyosiy ustunlik iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi	Mehnat asosiy boylik manbai, kapital esa jamg'arilgan mehnat sifatida talqin qilinadi
Marksistik	K. Marks	Kapitalning iqtisodiy tizimdagi o'ri va qo'shimcha qiymat nazariyasi	Mehnat qiymat manbai sifatida qaraladi, kapital esa ishlab chiqarish jarayonining muhim omili hisoblanadi
Neoklassik	A. Marshall, R. Solou	Ishlab chiqarish omillarining chegaraviy samaradorligi	Mehnat va kapital o'zaro almashinuvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi

1 Manba: Muallif tomonidan adabiyotlar asosida tuzilgan.



Inson kapitali	G. Bekker, T. Shults	Ta'lim va malaka iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi	Inson kapitaliga investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi
Institutsional	D. Asemoglu, J. Robinson	Institutlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi	Omillarning samarali taqsimlanishi institutlar faoliyatiga bog'liq

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aralash (mixed methods) tadqiqot strategiyasi qo'llanildi. Miqdoriy tahlil uchun Kobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida ekonometrik modellashtirish amalga oshirildi. Sifat tahlili esa nazariy adabiyotlarni tizimli sharhlash asosida olib borildi [15].

Kobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi

Tadqiqotning asosiy analitik vositasi sifatida Kobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi tanlandi. Funksiyaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$Y = A \cdot K^{\alpha} \cdot L^{\beta}$$

bu yerda:

Y — yalpi ishlab chiqarish hajmi (YalM);

A — texnologik taraqqiyot koeffitsienti (umumiy omil samaradorligi);

K — kapital hajmi;

L — ish kuchi hajmi;

$\alpha$  — kapitalning ishlab chiqarishga egiluvchanligi;

$\beta$  — ish kuchining ishlab chiqarishga egiluvchanligi [10].

Ma'lumotlar bazasi

Tahlil uchun Jahon banki (World Bank Open Data), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining 2010–2023–yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi [16]. Jami 14 yillik ma'lumotlar to'plami tahlil qilindi.

Tadqiqot bosqichlari


Tadqiqot quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirildi:

birinchi bosqichda nazariy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilindi;

ikkinchi bosqichda O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yig'ildi va qayta ishlanildi;

uchinchi bosqichda Kobb–Douglas funksiyasi asosida regressiya tahlili amalga oshirildi;

to'rtinchi bosqichda olingan natijalar interpretatsiya qilinib, ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar shakllantirildi [17] (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot metodologiyasining ierarxik tuzilmasi<sup>2</sup>

2 Manba: Mualliflar tomonidan tuzilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda O'zbekiston iqtisodiyotining 2010–2023–yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida ish kuchi va kapitalning yalpi ichki mahsulotga ta'siri tahlil qilinadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Ma'lumotlar Jahon banki (World Bank Open Data) hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy hisobotlari asosida shakllantirilgan [16] (2-jadval).

 2-jadval. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2015–2023–yillar)<sup>3</sup>

Yil	YalM (mlrd AQSH dollari)	Ish kuchi (mln kishi)	Kapital (mlrd AQSH dollari)	Mehnat unumdorligi (AQSH dollari)	YalM o'sishi (%)
2015	67.2	13.5	15.8	4 978	7.9
2016	67.8	13.8	16.5	4 913	7.8
2017	59.2	14.1	14.2	4 198	4.5
2018	50.4	14.4	13.8	3 500	5.4
2019	57.7	14.7	16.1	3 925	5.7
2020	57.9	14.2	15.9	4 078	1.9
2021	69.2	14.5	18.2	4 772	7.4
2022	80.4	14.9	21.5	5 396	5.7
2023	90.9	15.2	24.8	5 980	6.3

Ekonometrik tahlil natijalari

Kobb–Douglas funksiyasi asosida o'tkazilgan regressiya tahlili natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni namoyon etdi:


3-jadval. Kobb–Douglas funksiyasi bo'yicha regressiya tahlili natijalari

Ko'rsatkich	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	p-qiyamat
Kapital egiluvchanligi ( $\alpha$ )	0.42	0.058	7.24	0.001**
Mehnat egiluvchanligi ( $\beta$ )	0.55	0.063	8.73	0.000***
Texnologik koeffitsiyent ( $\ln A$ )	1.87	0.312	5.99	0.003**
R <sup>2</sup> (aniqlash koeffitsiyenti)	0.934	—	—	—
F-statistika	84.67	—	—	0.000***
Durbin–Uotson statistikasi	1.92	—	—	—

Eslatma: \*\*  $p < 0.01$ ; \*\*\*  $p < 0.001$  darajada statistik jihatdan ahamiyatli.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishga mehnat omilining ta'siri kapital omiliga nisbatan yuqoriroq darajada namoyon bo'lgan. Jumladan, mehnat egiluvchanligi koeffitsiyenti 0.55 ni tashkil etib, ish kuchidagi 1 foizlik o'sish YalM hajmining o'rtacha 0.55 foizga oshishiga xizmat qilishini anglatadi. Kapital egiluvchanligi koeffitsiyenti esa 0.42 ga teng bo'lib, kapital hajmidagi 1 foizlik o'sish YalMni o'rtacha 0.42 foizga oshirishi bilan izohlanadi.

Modelning aniqlash koeffitsiyenti ( $R^2 = 0.934$ ) regressiya modelining yuqori darajada mosligini ko'rsatadi. Bu esa YalMdagi o'zgarishlarning 93.4 foizi modeldagi omillar orqali izohlanishini anglatadi. Durbin–Uotson statistikasi qiymatining 1.92 ga tengligi model qoldiqlarida jiddiy avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi (2-rasm).


 2-rasm. Ishlab chiqarish omillarining YalMga qo'shadigan hissasi taqsimoti<sup>4</sup>

3 Manba: Jahon banki (World Bank Open Data) hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [16].

4 Manba: Mualliflar tomonidan regressiya tahlili natijalari asosida tuzilgan.



Natijalarni interpretatsiya qilish


Olingan natijalar O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat omilining kapital omiliga nisbatan yuqoriroq ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga xos xususiyatlardan biri bo'lib, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarning iqtisodiyotda muhim o'rin egallashi bilan izohlanadi [21]. Shu bilan birga, keyingi yillarda kapital omilining hissasi ham bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotda modernizatsiya va texnologik yangilanish jarayonlari jadallashayotganligini anglatadi.

Xalqaro taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kapital egiluvchanligi odatda 0.3–0.4 oralig'ida, mehnat egiluvchanligi esa 0.6–0.7 oralig'ida shakllanadi [22]. O'zbekistonda aniqlangan ko'rsatkichlar mazkur xalqaro mezonlarga yaqin bo'lib, iqtisodiyotning umumiy iqtisodiy qonuniyatlar asosida rivojlanayotganligini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval. Ishlab chiqarish omillari egiluvchanligi: xalqaro taqqoslash<sup>5</sup>

Mamlakat / hudud	Kapital ( $\alpha$ )	Mehnat ( $\beta$ )	$\alpha + \beta$	$R^2$
O'zbekiston	0.42	0.55	0.97	0.934
Qozog'iston	0.48	0.50	0.98	0.921
Turkiya	0.40	0.58	0.98	0.946
Janubiy Koreya	0.35	0.62	0.97	0.958
AQSH	0.33	0.67	1.00	0.967
Xitoy	0.52	0.46	0.98	0.941

Natijalarga ko'ra, O'zbekistonda  $\alpha + \beta$  yig'indisining 0.97 ga tengligi ishlab chiqarish omillarining deyarli doimiy miqyos samaradorligi (constant returns to scale) sharoitida faoliyat yuritayotganligini ko'rsatadi. Bu esa mehnat va kapital hajmining mutanosib ravishda oshishi ishlab chiqarish hajmining ham deyarli shu darajada o'sishiga xizmat qilishini anglatadi (3-rasm).



3-rasm. Ishlab chiqarish omillarining ierarxik klassifikatsiyasi<sup>6</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin.

Birinchi, Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi O'zbekiston iqtisodiyotini tahlil qilishda samarali analitik vosita sifatida namoyon bo'ldi. Modelning yuqori aniqlash koeffitsiyenti ( $R^2 = 0.934$ ) olingan natijalarning ishonchligini tasdiqlaydi [18].

$R^2=0.934$

Ikkinchi, O'zbekiston iqtisodiyotida ish kuchining kapitalga nisbatan yuqoriroq egiluvchanlik darajasiga ega ekanligi ( $\beta = 0.55 > \alpha = 0.42$ ) mehnat sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tuzilmasining ustunligini

5 Manba: Jahon banki ma'lumotlari hamda turli ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan [22].

6 Manba: Mualliflar tomonidan iqtisodiy nazariyalar asosida tuzilgan.



ko'rsatadi. Mazkur holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun xos bo'lib, iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi jarayonida kapital egiluvchanligining bosqichma-bosqich ortib borishi kutiladi [21].

$$\beta=0.55>\alpha=0.42$$

Uchinchidan, egiluvchanlik koeffitsiyentlari yig'indisining birlikka yaqinligi ( $\alpha + \beta = 0.97$ ) O'zbekiston iqtisodiyotida doimiy miqyos samaradorligi sharoiti mavjudligini anglatadi. Bu esa ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi [19].

$$\alpha + \beta = 0.97$$

To'rtinchidan, xalqaro taqqoslash natijalari O'zbekistonning ishlab chiqarish omillari tuzilmasi bo'yicha Turkiya va Qozog'iston kabi o'rtacha daromadli mamlakatlar tajribasiga yaqin ekanligini ko'rsatdi [22].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchiidan, inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kasb-hunar ta'limini sanoat ehtiyojlariga moslashtirish hamda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish orqali mehnat samaradorligini yanada oshirish mumkin [5].

Ikkinchiidan, kapital jamg'arilishini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hamda infratuzilma loyihalarini keng moliyalashtirish kapital zaxiralarining o'sishiga xizmat qiladi [23].

Uchinchidan, texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltiriladigan mablag'larni ko'paytirish, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish, shuningdek, innovatsion ekotizimni rivojlantirish umumiy omil samaradorligini oshirishga yordam beradi [24].

To'rtinchidan, mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Mehnat haqining adolatli taqsimlanishini ta'minlash, bandlik dasturlarini kengaytirish hamda mehnat sharoitlarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [25].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010). *Economics* (19th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. W. Strahan and T. Cadell, London.
3. Marx, K. (1867). *Das Kapital: Kritik der politischen Oekonomie*. Verlag von Otto Meisner, Hamburg.
4. Marshall, A. (1890). *Principles of Economics*. Macmillan and Co., London.
5. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. University of Chicago Press.
6. Karimov, N. X., & Abdullayev, S. B. (2022). O'zbekiston mehnat bozorining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 3(4), 45–58.
7. Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. John Murray, London.
8. Solow, R. M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
9. Cobb, C. W., & Douglas, P. H. (1928). A theory of production. *The American Economic Review*, 18(1), 139–165.
10. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A contribution to the empirics of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 107(2), 407–437.
11. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Publishers, New York.
12. Piketty, T. (2014). *Capital in the Twenty-First Century*. Harvard University Press, Cambridge.
13. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660–2670.
14. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches* (5th ed.). SAGE Publications.
15. World Bank. (2024). *World Development Indicators*. Washington, DC: World Bank Group. [World Bank Open Data](#)
16. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). *Basic Econometrics* (5th ed.). McGraw-Hill Education.
17. Wooldridge, J. M. (2020). *Introductory Econometrics: A Modern Approach* (7th ed.). Cengage Learning.
18. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth* (2nd ed.). MIT Press, Cambridge.
19. Durbin, J., & Watson, G. S. (1951). Testing for serial correlation in least squares regression. *Biometrika*, 38(1/2), 159–177.
20. Lewis, W. A. (1954). Economic development with unlimited supplies of labour. *The Manchester School*, 22(2), 139–191.
21. Bernanke, B. S., & Gurkaynak, R. S. (2001). Is growth exogenous? Taking Mankiw, Romer, and Weil seriously. *NBER Working Paper*, No. 8365.
22. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), 71–102.
23. Aghion, P., & Howitt, P. (1992). A model of growth through creative destruction. *Econometrica*, 60(2), 323–351.
24. International Labour Organization. (2023). *World Employment and Social Outlook: Trends 2023*. Geneva: ILO.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (3)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---